

**O‘ZBEKISTONNING INNOVATSION KASBIY KELAJAGI: “KICHIKLIK DAN BUYUKLIKKACHA BO‘LGAN INNOVATSION TA‘LIM YO‘LI”**

**Shermatova Veneraxon Muxtorovna**

*Qo‘qon Davlat Universiteti*

*Pedagogika va Psixologiya fakulteti*

*05/23 MT-S talabasi*

*Dang‘ara tumani 3-son Texnikumi Maktabgacha ta‘lim*

*Uslubchisi yo‘nalishi o‘qituvchisi*

*ORCID ID: 0009-0008-6141-457*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 29.03.2026*

*Revised: 30.03.2026*

*Accepted: 31.03.2026*

**KALIT SO‘ZLAR:**

*Yangi O‘zbekiston, maktabgacha ta‘lim tizimi, PF-190-son farmon, 316-son qaror, kasblar alifbosi, mitti kasb egalar markazi, katta blokli konstruktorlar, eketrik markaz*

*Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda maktabgacha ta‘lim tizimida amalaga oshirilayotgan islohotlar, ushbu tizimning rivojlanish istiqbollari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 23-oktyabrdagi “Kasbiy ta‘lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-190-son farmoni ijrosini ta‘minlash bo‘yicha tashabbuslar shuningdek, Prezidentning 2025-yil 23 oktyabrdagi 316-son qaroriga 4-ilova qilingan Kasbiy talim tizimini 2026- 2030 yillarda rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” hujjatlarida belgilangan asosiy vazifalar va o‘zgarishlar atroflicha yoritilgan.*

**Kirish.** Ta‘lim har qanday jamiyatning rivojlanishida eng muhim omillardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev islohotlari va qabul

qilinayotgan farmon, qarorlar ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqdi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutq so'zladi: Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshdi, yoshlarimizning oliy ta'lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga yetdi. Eng asosiysi – o'qituvchi va ustozlik kasbining obro'si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaramoqdamiz. Pedagoglarning o'zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O'zbekistonda Butunjahon professional ta'lim sammitini o'tkazishni taklif etamiz” – deb ta'kidlaydilar.[1]. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ushbu soha tubdan takomillashtirildi. Ta'lim tizimining ilg'or xorijiy tajribalari kirib keldi. Bu amalga oshirilayotgan islohotlar bizning ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farovonligi sabachisi bo'lgan yoshlar uchun bajarilayotlar islohotlardir.

Maktabgacha ta'lim tizimida Yangi farmonning qabul qilinishi.

2026 - yil uchun Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi texnikum to'quvchilari uchun qarorda ko'rsatilgan “Atrofimizdagi kasblalar” dasturi asosida metodikani shakllantirish. Ushbu dastur bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5 yoshdan boshlab bolalarda o'yinlar orqaliturli kasblar xaqida ilk tasavvurlar shakllantiriladi. Qarorda ko'rsatilgan kasbiy ta'lim bo'yicha metodik ba'zani shakllantirish va amaliyotga tadbiiq etish ko'zda tutilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad texnikum o'quvchilarini (bo'lajak bog'cha tarbiyachilarini) maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga kasblarni o'rgatish bo'yicha yangi metodika bilan qurollantirish.

“Kasblar alifbosi” dasturi asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 1-4 sinf oquvchilariga turli ko'rsatilgan ko'rsatilgan ko'rsatilgan kasblar ahamiyati haqida tushunchalar beriladi va ularning dastlabki kasbiy qiziqishlari rivojlantiriladi “Kasblar olami” dasturlari asosida 5-6 sinf oquvchilarini kasbiy faoliyat va mehnat sohalariga qiziqishlari rivojlantiriladi va kelajakdagi tanlovga tayyorgarlikning asosi yaratiladi. “Mening kelajakdagi kasbim” dasturi asosida maktab maslahatchilari tomonidan 7-9 sin o'quvchilarini kasbiy qiziqishlari, qobiliyatlarini va iqtidorlarini aniqlanib, ularni akademik talim ta'lim yoki kasb -hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etish belgilandi. Asosiy Strategik masala O'quvchilar Qarorda ko'rsatilgan kasbiy ta'lim bo'yicha metodik ba'zani shakllantirish va amaliyotga tadbiiq etish ko'zda tutilgan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad texnikum o'quvchilarini (bo'lajak bog'cha tarbiyachilarini) maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida bolalarga kasblarni o'rgatish bo'yicha yangi metodika bilan qurollantirish. O'quvchilar ta'lim tiizmini yakunlab, o'z faoliyati davomida "Atrofimizdagi kasblalar" tizimini amaliyotga kirita olishadi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga yanada katta xizmat qiladi.

Amaliy harakatlar: Texnikumda Maktabgacha ta'lim yo'nalishi o'quvchilari uchun "Kichik va katta" mutaxassislar laboratoriyasi, "Mitti kasb egalari markazi" deb nomlangan amaliy Laboratoriya xonasini tashkil lozim.

Ushbu xonani tashkil etish bo'yicha dizayn va reja ishlab chiqiladi. Unga ko'ra: Xonani zonalarga yoki markazlarga bo'lish (zonalashtirish) xonani bir nechta "lokatsiya" larga ajratiladi. Talabalar bu yerda bolalar uchun o'yin darslarini qanday o'tkazishni o'rganishadi.

Ushbu quyidagi xonalar tashkil etiladi:

□ Shifoxona markazi zonasi.

Kerakli jihozlar : Oq xalatlar, o'yinchoq, tibbiy anjomlar va hakoza

Asosiy Maqsad: Bolalarni maktabgacha yoshidan shifokor kasbi bilan tanishtirish va ulardagi qo'rquvni yo'qotish, tibbiy ma'daniyatni ilk kichik yoshidan tog'ri shakllantirish hisoblandi.

□ Qurilish va arxitektura markazi (zonasi):

Kerakli jihozlar: Katta blokli konstruktorlar, kaskalar, chizmalar.

Asosiy maqsad: Muhandislik va qurilish haqida tushuncha berish hamda bolalarga muhandislik, arxitektor kasbini vazifalari, ularni qanday ishlarni bajara olishi , nima uchun bu kasb inson hayotida muhim rol o'ynaydi kabi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

□ Xizmat ko'rsatish markazi (zonasi) Sartaroshxona.

Kerakli jihozlar: Sartaroshlik to'plamlar, (oyna O'yinchoq xavfsiz, sartarosh uchun kiyimlar, fartuk, mijoz uchun kiyimlar)

Asosiy Maqsad: Bolalarda estetik didni shakllantirish. O'z -o'ziga xizmat ko'rsatish va shaxsiy gigiyena qoidalariga o'rgatish , mayda motorikalarni rivojlantirish.

□ Mitti energetik: (Elektrik ) markazi (zonasi):

Jihozlar: Stend: Devorda "Elektr zanjiri" maketi ,(simlar, lampochkalar va kalit vyuklechatel) hammasi o'yinchoq va xavfsiz.

Kiyimlar: Maxus ishchi nimchasi va himoya kaskasi. Asboblar: Plastmassali o'yinchoq belgilar , "Diqqat xavfli " , " Chiroqni o'chirishni unutmang" kabi ogohlantiruvchi belgilar.

Asosiy Maqsad: Elektr energiyasi haqida tushuncha berish va Xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, tejamkorlik, chiqayotganda chiroqni o'chirish odatini shakllantirish.

□ "Suv hayoti" ( Suv xo'jaligi mutaxasisi) markaz (zonasi)

Jixozlar: quvurlar maketi; Rangli plastik quvurlar, (bolalar ularni bir birlariga ulab, suv yo'li yasashadi.

O'lchov asboblari: Kichik suv hisoblagich maketi, sug'orish tizimi; kiichik idishlar, tomchilab sug'orishni aks ettiruvchi shlangchalar.

Xarita: O'zbekistonning doryolari va suv omborlari tasvirlangan kichik xarita.

Asosiy Maqad: suvni tabiatdagi o'rni va uni tejab ishlatish (tomichilab sug'orishni) o'rgatish. Suvni qayerdan kelishini (quvurlar, kanallarni ) tushuntirish, Ekologik tarbiya berish.

□ Mitti Muhandis (Mashinasozlik, va konstruktorlik) markazi (zonasi)

Jixozlar: Konstruktorlar to'plami: Turli o'lchamdagi (lego, mognitli va yog'ochli) konstruktortorlar.

Asboblari to'plami: Kichik drel, bolt va gaykalar (katta o'lchamdagi)

Chizmalar, mashina, traktor, yoki robotning oddiy chizmalar (plakat shaklida)

Asosiy maqsad: Bolalarda predmetlarning tuzilishi va qanday ishlashiga qiziqish uyg'otish. Geometrik shakllarni farqlash, yangi narsalarni yasashni o'rgatish, mantiqiy fikrlash va fazoviy tasavvurni rivojlantirish.

□ Tabiat posboni (Ekolog) markazi zonasi

Jixozlar: Saralash qutilari: 3 xil rangdagi kichik chiqindi qutilar (ko'k-qog'oz uchun, sariq-plastik, yashil-shisha uchun) Lupa (Kattalashtiruvchi oyna) barglar, tuproq va mayda hashorotlarni kuzatish uchun.

Yashil burchak: Idishlarda ekilgan tirik gullar va ularni parvarishlash asboblari (kichik suv sepgich, belkurakcha)

Ekologik xarita: Tabiatni ifloslanishdan himoya qilishni ko'rsatuvchi rasmlil plakatlar.

Kiyimlar: Yashil rangli nimcha.

Labaratoriyamizda" Elektrik" va" Suv xo'jaligi burchaklarini ya'ni markaz (zona) lari, Mashinasozlik, Ekolog kabi markazlar labaratoriyaga qo'shishimizdan asosiy maqsad - talabalarga zamonaviy STEAM (Fan, Texnologiya, Muxandislik, San'at, Matematika) ta'limini o'rgatishdan iborat. Bu kasblar orqali bolalar dunyoni texnik tomondan tushuna boshlaydilar. Ayniqsa bugungi kunda energiya va suv tanqisligi davrida ushbu kasblarni targ'ib qilish Davlat ahamiyatiga molik vazifa hisoblanadi. Bu orqali biz bitiruvchi o'quvchilarni nafaqat tarbiyachi, balki bolalarda muhandislik va tabiatshunoslik asoslarini shakllantira oladigan universal mutaxassis qilib tayyorlashni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz.

II. " Kichik va Katta" kasblar orasidagi bog'liqlikni ko'rsatuvchi plakat loyihasi.

Ushbu plakat xonaning markazi devorida joylashtirish mumkin. Plakat nomi: 'Kasblar ko'prigi: Kichikdan Buyuklikkacha" deb nomlanadi. Plakatning chap tomoni – "Mitti kasblar" burchagining ramziy ko'rinishi. Plakatning o'ng tomoni - "Katta basblar: burchagining ramziy ko'rinishi. O'rtada ko'prik shaklida yo'l. Bu yo'l orqali kichik kasblardan kelib chiqib, katta kasblarga qanday o'tilishi ko'rsatiladi.

Plakat mazmuni: 1-Rasm ( kichik): Oshpaz bolasi o'yinchoq taom tayyorlamoqda.

Yozuv: Taom tayyorlashni o'rganaman, yo'l orqali o'tib. 2-Rasm: 2 ta Katta: Oshpaz o'zining katta oshxonasida professional taom tayyorlamoqda.

Yozuv: Zamonaviy oshxonada professional dunyo taomlarini yarataman.

Kasbi: Oshpaz. Texnolog ,oziq-ovqat muxandisi.

III. Kasblar alifbosi" devorini yaratish.

Devorga har bir harfga mos keladigan kasblar rasmi joylashtiriladi.

Misol: A-Agroxizmatchi

S - Suv xo'jaligi

E- Elektrik

O- Oshpaz

M- muxandis, mashinasoz

Ushbu markazni qo'shishimizdan maqsad o'quvchilarni Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga alifbo asosida faoliyat o'tish ko'nikmalari shakllanadi. Har bir harf uchun kamida bitta tushunarli kasb tanlangan.

Maqsad: Bu kabi loyihalarni amalda qo'llash Texnikumning milliy reytingi tizimida yuqori natija ko'rsatishini ta'minlash va o'quvchilarning ish bilan bandligini oshirilishiga katta xizmat qiladi. Dual ta'lim va "Mahorat darslari" orqali texnikum o'quvchilarida mukammal ko'nikmlar shakllantiriladi.

O'quvchilar bilan birgalikda "Atrofimizdagi kasblar" mavzusida ochiq mashg'ulotlar ishlanmasini metodikasini yaratib, ushbu metodlarni amaliyot darslari davomida sinovdan o'tkaziladi. Ta'limni nazariyadan ko'ra amaliyotga ish joyiga ko'chirish orqali hududdagi namunali maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yilsa hamda amaliyotchi o'quvchilarlar o'rtasida "Yilning eng yaxshi bo'lajak tarbiyachisi" tanlovini o'tkazish orqali, tanlovda g'olib bo'lganlarni ish bilan ta'minlanishi ko'zda tutiladi.

Bu laboratoriyada biz nafaqat qanday o'qitishni metodologiyasini balki interfaollik, vizuallik, amaliyotga yo'naltirishni qo'llaymiz, shuningdek, bolalarni ta'lim jarayoniga faol

sub'ektga aylantiramiz. Bolalar o'z qo'llari bilan tadqiqotlar o'tkazadi, muammolarga yechimlar topadi, mardlik va mas'uliyatni o'zlarida sinab ko'radi.

“Ilk qadam” davlat dasturiga qo'shimcha ravishda ushbu loyiha boyicha “Mitti va Katta Kasb egalari” konsepsiyasi asosida uyda “Oilaviy Maktabgacha ta'lim tashkiloti” tashkil etib ochish va uni ushbu yangi dastur bo'yicha boyitish. Bu yosh avlodga sifatli ta'lim berishning eng qulay va samarali yo'lidir. Ushbu oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotimizda guruh faoliyati uchun innovatsion laboratoriya faoliyat xonasi tashkil etiladi. Bolalar har kuni u yerda 1- 2 soat faoliyatda “ishlashadi”. Natijada bola bog'chani bitirayotganda ota-onaga “Sizning bolangizda buhandislikka yoki (ekologiyaga) moyillik yuqori” degan tavsiyanoma beriladi. Ushbu bog'cha bitiruvchilari 1-chi sinfga borishganda, oddiy bolalardan mantiqiy fikrlashi va dunyoqarashi bilan kamida 1-2 yil oldinda bo'lishadi. Bunda nafaqat texnikum bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash balki (Dual ta'lim asosida) shu bilan birgalikda, bo'lajak pedagog kadrlar ham o'zlarining kasbiy ko'nikmalarini innovatsion usullar asosida mustahkamlaydilar. Muhtaram Prezidentimiz aytganlaridek Maktabgacha ta'lim tashkiloti -bu tarbiyaning poydevori. Biz o'sha poydevorni zamonaviy texnologiyalar bilan mustahkamlaymiz”.

Bu maskanda bolalarimiz kelajak kasblar misol o'rnida: Temir yo'lchi, energetik, muhandis, ekolog, suv xo'jalik, oshpaz kasblari bilan yoshlikdan tanishib, ularda yuksak intellektual salohiyat, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash va vatanparvarlik ruhini shakllantiriladi. Bu loyiha nafaqat bizning texnikumimizda “Innovatsion Oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti” da balki butun mamlakatimiz miqiyosida Maktabgacha ta'lim sifatini oshirishiga xizmat qiluvchi namunali modeliga aylanadi deb hisoblayman.

Xulosa. Ushbu markaz shunchaki to'rt devordan iborat bo'lmaydi. U qalbida o'zi bilan yuzlab mittivoylarning orzulari, minglab ota-onalarining ishonchi va jamiyatimizning porloq kelajagini mujassam etgan ma'naviy qal'a, bilimlar maskani va cheksiz imkoniyatlar dunyosi bo'lishga xizmat qiladi.

Bizning o'zbek o'g'lonlari va qizlari bugungi kunda jahon yoshlari bilan albatta tenglasha oladilar. Buyuk kashfiyotchilar, muhandislar, texnologlar yetishib chiqishiga ishonaman. Ularning ilk bolalik davridan olgan bilimlar poydevori, yoshlarimizni kelajakdagi buyuk shaxs inson bo'lib yetishishiga mustahkam zamin yaratadi hamda yosh avlodni kelajakning buyuk texnologik kashfiyotchilariga aylanishiga yordam beradi. O'zbekiston yoshlari- dunyo ilm-fani va texnologiyasini yangi sahifalarini yaratuvchi kuchdir.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida nutqi, 2025-yil 23-sentabr. <https://president.uz>

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 23 oktyabr PQ-316. 2025-yil 23 oktyabr PF-190.

